



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

ELEMENTS REFLECTING THE MOTIVE OF FEAR IN GOTHIC NOVELS

Gulbahor Karimova

Doctoral student

Namangan State Institute of Foreign Languages

E-mail: gulbaxorkarimova555@gmail.com

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: gothic, genre, gothic novel, poetics, convention, gothic novel's elements, claustrophobia, ecstasy, antithetical.

Received: 23.10.25**Accepted:** 24.10.25**Published:** 25.10.25

Abstract: This article is devoted to the Gothic novel (Gothic story), a fantastic genre that moves and enhances human emotions through the depiction of scary, fantastic, fantastical events. In order to develop a more strictly differentiated understanding of this genre, the topic was studied in detail, realizing that one of the main goals is to oppose the lack of clarity of genre descriptions in the literary terminology of the Gothic novel. It also helps to understand the origin and cultural-historical significance of the Gothic novel as a famous border phenomenon between the Enlightenment and modernity. In addition, the elements of the Gothic novel and the methods of introducing them into literature were specially discussed. American scholar Noel Cornell emphasizes the need to use certain techniques in the Gothic genre to create various effects. Taking this into account, the Gothic elements that create fear and their functions in the work are described. In Gothic literature, the places chosen as settings, natural phenomena, another element that is of great importance in creating and strengthening the feeling of fear, the element of blood, which represents vitality and life, and dreams, which are considered the main contributors to ensuring the stability of fear, are the main components, and their scope of influence is explained using the example of works.

GOTIK ROMANLARDA QO'RQUV MOTIVINI AKS ETTIRUVCHI UNSURLAR

Gulbahor Karimova*Namangan davlat chet tillari instituti doktoranti**E-mail: gulbaxorkarimova555@gmail.com**Namangan, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: gotika, janr, gotik roman, poetika, konvensiya, gotik roman elementlari, klostrofobiya, ekstaz, antitetik.

Annotatsiya: Ushbu maqola gotik roman (Gotik hikoya) qo'rquvchi, fantastik, hayoliy voqealar tasviri orqali inson his-tuyg'ularini harakatga keltiruvchi va kuchaytiruvchi fantastik janrga bag'ishlangan bo'lib, ushbu janrni yanada qat'iy tabaqalashtirilgan tushunchasini ishlab chiqish uchun gotika romanining adabiy terminologiyasida janr tavsiflariga aniqlik yetishmasligiga qarshi turish tub maqsadlardan biri ekanligini anglangan holda mavzuni atroflicha o'rganib chiqildi. Bu, shuningdek, ma'rifat va zamonaviylik o'rtasidagi mashhur chegara hodisasi sifatida gotik romanning kelib chiqishi va madaniy-tarixiy ahamiyatini tushunishga ko'maklashadi. Bundan tashqari gotik roman elementlarini hamda ularni adabiyotga kiritish usullarga alohida to'xtalib o'tildi. Amerikalik olim Noel Cornell turli ta'sir effektlarini yuzaga keltirish uchun, gotika janrda ma'lum usullarni qo'llash zarurligini ta'kidlaydi. Buni inobatga olgan holda qo'rquvni yuzaga keltiruvchi gotika elementlari ularning asardagi vazifalari tasvirlandi. Gotika adabiyotida makon sifatida tanlangan joylar, qo'rquv hissini yuzaga keltirishda, hamda kuchaytirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan yana bir element tabiat hodisalari, tiriklik va hayotni ifoda etuvchi qon unsuri, qo'rquvni barqarorligini ta'minlashda asosiy ko'makchi sanalgan tushlar asosiy komponentlar bo'lib, ularning ta'sir doirasi asarlar misolida tushuntirildi.

ЭЛЕМЕНТЫ ОТРАЖАЮЩИЕ МОТИВ СТРАХА В ГОТИЧЕСКИХ РОМАНАХ

Гульбахор Каримова*Наманганского государственного института иностранных языков докторант**E-mail: gulbaxorkarimova555@gmail.com**Наманган, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: готика, жанр, готический роман, поэтика, условность, готическому роману (готическому

элементы готического романа, клаустрофобия, экстаз, антитетика.

рассказу) - фантастическому жанру, волнующему и усиливающему человеческие эмоции посредством изображения страшных, фантастических, фантастических событий. С целью выработки более строго дифференцированного понимания этого жанра тема изучалась подробно, осознавая, что одной из основных целей является противодействие нечеткости жанровых описаний в литературной терминологии готического романа. Это также помогает понять происхождение и культурно-историческое значение готического романа как известного пограничного явления между Просвещением и современностью. Кроме того, специально обсуждались элементы готического романа и способы внедрения их в литературу. Американский ученый Нозль Корнелл подчеркивает необходимость использования определенных приемов в готическом жанре для создания различных эффектов. С учетом этого были описаны готические элементы, вызывающие страх, и их функции в произведении. В готической литературе основными компонентами являются выбранные в качестве обстановки места, природные явления, другой элемент, имеющий большое значение в создании и усилении чувства страха, элемент крови, олицетворяющий жизненную силу и жизнь, а также сны, которые считаются основными факторами, обеспечивающими устойчивость страха, и сфера их влияния поясняется на примере произведений.

Kirish. So'nggi yillarda nafaqat dunyo adabiyotida, balki kino, musiqa va moda olamida ham gotika uslubi haqida eshitib qolamiz. Gotika adabiyoti g'amgin manzaralar, voqea va hodisalarni ataylab kuchaytirish yoki kichraytirish orqali kulgili tarzda buzib ko'rsatuvchi, g'ayritabiiy unsurlar, romantika bilan ajralib turadigan o'ziga xos uslub sifatida ta'riflanadi. Gotik roman mualliflari o'z asarlarida kitobxonda qo'rquv va dahshat tuyg'ularini qo'zg'atadigan turli elementlardan foydalanishadi. Gotika romantizmi ko'plab xususiyatlariga ega bo'lsada, u asosan insoniyatning salbiy tomonlariga va uning gunoh va yovuzlik bilan mashg'ulligiga qaratilgan. Xurofot va ko'r-ko'rona e'tiqoddan ko'ra ko'proq aql va ilm-fanga urg'u bergan ma'rifatdan farqli o'laroq, gotika yozuvchilari kitobxonlarning his-tuygularini uyg'otishni maqsad qilganlar. (Kevin R., 2004, 272).

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Gotik romanlar XVIII asrning katta ahamiyatga molik madaniy va adabiy hodisasi. Bu janr 1764 -1820- yillar oralig'ida o'zining eng gullagan davrini yashab, butun Yevropada mashhurlikka erishdi. Gotik roman va fantastik hikoyalar so'ngi yillarda adabiyotshunoslikdagi bahsli munozaralarning asosiy mavzusiga aylangan janrlardir. Bugungi kunga qadar janrning ta'riflari, paydo bo'lish sabablari, ijtimoiy-madaniy asoslari tadqiqot obyektlari sifatida adabiyot sohasidagi ko'plab ilmiy ishlarning asosini tashkil etgan. E.J.Clery (1995), nemis tilshunos va adabiyotshunos olimlari Alewyn, Richard Wolfram (1965), Michael Bernsen (1996), Cristian Begemann (1987) ma'rifatchilik davrining ta'sirini inobatga olgan holda gotik romanda qo'rquv motivini paydo bo'lish sabablarini tadqiq qilishgan. Avstriyalik psixolog va siyosatchi Christian Allesch (1987), germaniyalik adabiyotshunos Carsten Zelle (1987) ilmiy faoliyatlarini gotik romanning payda bolishining tarixiy – falsafiy asoslariga bag'ishlashgan. Atoqli nemis yozuvchilari Conrad Horst (1974), va Wolfgang Trautwein (1980), hamda gotika adabiyotida taniqli ingliz yozuvchilaridan biri William Patrick Day (1985) tasviriy vositalarga tayangan holda gotik romanning me'yoriy invensiyasini tahlil qilishgan. Shuningdek, austriyalik psixolog Michael Balint (1972), hamda yozuvchi Helge Pohl (1985) gotika adabiyotdagi psixo-analitik hodisalarni ilmiy tadqiq qilishgan.

Natijalar va muhokama. Maqolada gotik roman unsurlari bosqichma-bosqich o'rganib chiqilib, shu izlanishlar yuzasidan natija va xulosalar taqdim etildi. Gotik roman elementlariga qo'rquv motivining asosiy manbai sifatida alohida yondashildi, shuningdek, ularning asardagi ta'siri, vazifasi asarlar misolida tahlil qilindi. Gotika unsurlarni qo'llanishi, ularning qo'rquv hissi darajasini oshirish usullarini taqdim etildi. Adabiyotshunoslar shunday yakdil fikrda bo'lishgan: „Qo'rquv va gotik romanlar bir-biriga uzviy bog'langan.“ (Wolfgang T., 1980, 15). Mashhur nemis adabiyotshunos olimi Wolfgang Trautwein gotik romanlarga shunday ta'rif keltirdi: „Gotik romanlar adabiy janr hisoblanib, bu tur ma'lumotlarni qabul qilish jarayonida qo'rquvni yuzaga keltiradi, shuningdek ma'lum usul va yo'llar bilan qo'rquvni kuchaytiradi.“ (Michael B, 1996, 103). Yana bir nemis adabiyotshunos olimi esa gotik romanlarning diqqat markazida kitobxonni qo'rquv iskanjasiga solish deya fikr yuritadi.

Bugungi kunga qadar kitobxonning hodisaga munosabatini turlicha asoslashni o'z oldiga maqsad qilgan ilmiy ishlar soni cheklangan. Gotik romanlar als kitobxonning hissiyotlarini jumbishga keltirishga urg'u berganligi bois, ushbu hodisani amalga oshiruvchi tasviriy vositalarni tahlil qilish muhim sanaladi. O'z metodlarini adabiyotda qo'llashga, uning natijalarini amaliy tadqiqotlarga asoslangan holda yoritish bilan shug'ullanuvchi psixoanalitika adabiyotshunoslik va psixologiya sohalaridagi hamkorlikka jalb qilingan. Adabiyotshunoslikda psixologiyaning eksperimental metodlari qo'llaniladi, biroq bu usullar tasviriy vositalarni tahlil qilishga qodir emas. (Hauptmeier H., 1985, 144).

Gotik roman unsurlari albatta asarda qo'rquv hissini aks ettira olishi lozim. Har bir elementga alohida yondoshsak, avvalo asardagi makonni yoritish bilan bog'liq muammo yuzaga keladi. Gotik roman uchun asosiy harakat joyi tashlandiq qal'a, qasr yoki qabristonlar sanaladi. Syujet asosan shu makonlar atrofida aylanadi. Eski qasr yoki qal'a xarobalari tashlandiq, ba'zan ishg'ol etilgan, ba'zan esa binoning istiqomatchilari bor yoki yo'qligi aniq ko'rsatilmay tasvirlanadi. Qal'ada yashirin o'tish joylari, tuzoq eshiklari, maxfiy xonalar mavjud bo'lib, yashirin tutqichli panellar, qorong'u yoki yashirin zinapoyalar va ularning qisman vayron bo'lgan qismlarini yuksak mahorat bilan tasvirlash kerakki, ular kitobxonda chindan qo'rquv hissini uyg'ota olishi kerak. Shuni ham ta'kidlash kerakki, qorong'ulik, notekis qavatlar, g'ayrioddiy tovushlarning aks-sadolari klostrofobiyaning asosiy omilidir.

Gotik romanlarda g'orlar ko'pincha yirtqich hayvonlar yoki devlar kabi dahshatli mavjudotlar uchun makon qilib tanlanadi. (WordPress.com. Elements of the Gothic).

Odatda arvoh, boshqa g'ayritabiiy mavjudot yashaydigan, doimiy ravishda tashrif buyuradigan, makon sifatida tanlagan joylar qasr va qal'alar hisoblanadi. Misol: H. Walpole o'z romanida ilk bor gotika adabiyotiga o'zining eng ta'sirli konventsiyasi qal'ani kiritdi. Qal'a hikoyaning asosiy muhitini yoritib beruvchi harakat markazi etib tanlangan. Qahramonlar bilan ro'y bergan barcha voqealar qal'a ichida yoki atrofida shakllantirilgan. Bundan tashqari bu makon o'zining sirli muhiti bilan qo'rquv hissini bera olgan.

Inson ruhiyatiga kuchli ta'sir qiluvchi makonlardan biri bu qabristonlardir. U inson uchun og'ir judoligi bilan bog'liq ramzga qachonlardir aylanib bo'lgan. Bu unsur kitobxonda bir vaqtning o'zida ayriliq, qo'rquv hissini uyg'ota oladi. Ma'lumki, qabriston o'liklarni dafn qilish uchun mo'ljallangan mahsus joy sifatida qaraladi. Gotika adabiyotida qabristonlar ko'pincha qasos olish mumkin bo'lgan qo'rqinchli joylar sifatida keng tarqalgan. Ayniqsa katakombalarni asarlarda gotik makonga aylantirilib, ular tiriklarga yer ostidagi qorong'u labirintda o'liklarning sirlaridan xabardor bo'lishga imkon beradi. (WordPress.com. Elements of the Gothic).

Shuni ham eslatib o'tsak, qabristonlar gotik roman uchun asosiy makon sifatida deyarli tanlanmaydi, chunki ular muntazam tashrif buyuriladigan joy hisoblanmaydi. Qo'rquv mavhum, shaklsiz xissiyot sifatida ta'riflansa, Daxshat qo'rquv xosil qiluvchi muayyan obyektga tegishlidir. Shu sababli noodatiy hodisalardan qo'rqish na aniq na butunlay mavhum tushuncha hisoblanadi. (Michael B., 1996, 21).

Ba'zan gotik adabiyotda harakat joyi shu qadar old o'ringa chiqadiki, u mavhum tarzda tasvirlanadi, shu orqali dahshat muhitini yanada qo'rqinchli tarzda yaratish uchun imkon tug'iladi. Aksaryat hollarda gotik adabiyotda binolar o'zining haybatli ko'rinishi bilan ajralib turadi. Deyarli yorug'lik bilan ta'minlovchi oynalar mavjud emas, faqatgina ularning minorasidan atrof-muhitni

kuzatish mumkinligi asarga sir-sinoatga to'la muhitni joylay oladi. Mashhur Britaniyalik yozuvchi J.Conrad gotik romandagi harakat joyida shunday ta'rif beradi:

„Zum Schauplatz des Schauerromans wird ein Ort, der seine Geheimnisse hat, an den alle handelnden Personen festgebannt scheinen, ein Ort unabsehbarer Ängste. Man bewohnt diese ‚Aufenthaltsräume des Schreckens‘ nicht, sondern wird zum Verweilen gezwungen. Der Schauplatz der Handlung erhält im Schauerroman ein besonderes Gewicht dadurch, dass der Ort zugleich schicksalhafter Ort ist. Er hilft mit, eine dem schicksalhaften, schauerlichen Geschehen gemäße Atmosphäre zu schaffen“ (Conrad Horst., 1974, 13). Uning fikriga ko'ra gotik adabiyotda harakat joyi sir-sinoatga to'la makon bo'lib ular qahramonlar bilan chamber-chas bog'langan. Asarda sahna faqat qo'rquv makon etgan joy sifatida berilmaydi, balki u yerda yashashga majbur qilinadi. Harakat joyi asarda shunday tosh bosadiki, u bir vaqtning o'zida dahshatli, vahimali makon, shu bilan birga qo'rqinchli, xavfli hadisalariga mos tushuvchi muhitni yaratisha ko'maklashadi.

Ta'kidlanadiki, gotik roman makoni keyingi unsur tabiat hodisalari bilan qo'rquv tabiatini yanada mukammallashtiradi. Ob-havo bir necha usul va shakllarda qo'llaniladi, ulardan ba'zilaridan biri tuman hisoblanib, gotika adabiyotidagi bu konventsia ko'pincha narsa-predmetlarni ko'rishni qisqartirish orqali obraz ko'rinishni kamaytirish yoki yangi bir timsolni kiritish uchun ishlatiladi. Bu unsur muhitni sirlik darajasini yanada boyitadi. Tuman ichida tasodifiy duch kelish mumkin bo'lgan voqealar kitobxon qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Qo'rquv qo'zg'atuvchi yana bir tabiat hodisasi bo'ronlar sanalib, bu ko'pincha muhim voqealarga hamroh bo'ladi. Asardagi har bir tabiat hodisasi syujetda o'z vazifasiga, shuningdek, o'z belgilariga ham ega. Chaqmoq vahiy bilan birga keladi, momaqaldiroq va yomg'irlar xarakterning ko'rinishini yoki muhim voqeaning boshlanishini anglatadi. Quyosh nuri zulmatdan yorug'likka chiqishga ishora qilib, u yaxshilik va zavqni anglatadi, u shuningdek, sovg'a qilish qudratiga ham ega. Ilk quyosh nurlari barcha azob-uqubatlar, dahshatlar tugaganiga ishoradir. Gotik romanlarda momaqaldiroq kabi dahshatli tabiat hodisalari, shuningdek, oy nuri yoki tuman ostida cho'milgan tungi manzaralar, bepayon ochiq joylar va qorong'u o'rmonlar ham syujetning asosiy unsurlari sanaladi. Gotik adabiyotda bu kabi motivlar ayniqsa keng tarqalgan. (Felix K., 2013, 18).

Gotik romanlar uchun syujetda sirli va shubhali muhit yarata olish salmoqli mahorat talab qiladi. Sirli muhit asarda qo'rquv tuyg'usi qo'zg'atuvchisi sifatida kuzatiladi. Asarda qo'rqituvchi tuyg'uga, qahramon uchun ma'lum bo'lmagan hodisalarni kuchaytirish orqali erishiladi. Ko'pincha syujetning o'zi noma'lum ota-ona, g'oyib bo'lish yoki boshqa tushunarsiz hodisa kabi sir atrofida quriladi. Harakatda arvohlar yurishi yoki jonlanayotgan rasm gotik hikoya uchun odatiy hodisa sifatida qaraladi. Bundan tashqari syujetda tasvirlangan qal'a yoki uning aholisi bilan bog'liq qadimiy bashoratlar ham syujetga kiritiladi. Odatda voqealar noaniq, qisman chalkash holatda

tasvirlanadi. Bu kitobxonni o'ziga jalb qiladi va keyingi mutolaani davom etirishni rag'batlantiradi. Asardagi muhit qahramonlarning qiziqishi yoki qo'rquvini uyg'otish bilan bir qatorda, inson ruhiyatiga ta'sirini kuchaytirishga ko'maklashadi Gotik adabiyotda tun va zulmatni ma'rifat nuriga qarama-qarshi qo'yiladi va asrlar davomida kuzatib kelinyotgan bu kurash ibtidosi sifatida yorug'lik foydasiga hal qilinadi. Gotik romanlar, shuningdek, ruhiyatning ongsiz va qorong'u tomonlarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, fan sifatida psixologiyaning boshlanishi romantik davrga to'g'ri kelishi bejiz emas. Shuning uchun ham san'at va adabiyotda g'ayrioddiy motiv bo'lgan dahshatli tush qora romantizmdagi motivdir. (Heinz G., 2000, 116).

Qo'rquv kuchli, yoqimsiz, tom ma'noda makon tanlamasi tuyg'udir. Psixologiyada inson qo'rquvining turli ko'rinishlari yaqqol yoritib berilgan. Ilmiy tilda klaustrofobiya deb atalgan ushbu qo'rquv ko'rinishi tuzoqqa tushish, qamoqqa olish, zanjirband qilish harakatlari paytida yuzaga keladi. Shu sababli qo'rquvning bu turi gotik roman elementi sifatida qora romantizmga kiritilgan. Gotikaning sevimli syujeti odamni qamalgan yoki tuzoqqa tushgan holda tashvirlanishidadir. Ko'pincha qamoqqa olish yoki tuzoqqa tushish bilan bog'liq bo'lgan klaustrofobiya, shuningdek, jabrlanuvchining nochorlik hissi yoki qandaydir qorong'u, tushunib bo'lmaydigan taqdirga duchor bo'lgan dahshatli ruhiy xabardorlikning ko'rsatkichi sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin. (McReynolds P., 1996, 36)

Gotik romanga g'ayritabiiylik syujetga xos unsurdur. Ma'rifatchilik davrida qadar qo'rquv tasviri faqatgina vahima ta'siri doirasida aks ettirilgan bo'lib, tasvirning axloqiy me'yor sifatlariga e'tibor qaratilmagan. Qo'rqitish orqali ijtimoiy axloq normalari chegarasini buzganlik uchun jazolash sifatida qarash maqsadga muvofiq hisoblangan. 1660- yildan keyingi davrlarda paydo bo'lgan hikoya shaklida didaktik vazifani adabiyotda noodatiy mavjudotlar zimmasiga yuklandi. G'ayrioddiy hodisalarning mavjudligi sababli xavf ostida qolgan diniy olamga tayanildi. Ma'rifatchilik davridan oldin insonlarning ruhlarga chindan ishonishi ustuvor sanalgan bo'lsa, XVII asr oxiri XVIII asr boshlarida qo'rquv motividan estetik unsur sifatida foydalanishni boshladilar. Qo'rquv uyg'atuvchi, dahshat soluvchi hodisalar endilikda ulug'vor tushunchalar doirasida mujassamlashtirib, estetik unsur sifatida qadrlandi. Adabiy motiv sifatida noodatiy mavjudotlarni qo'llash ijtimoiy – madaniy omillar tomonidan qanoatlantirildi. Shu bir qatorda ruh obrazlarini shakllantirilishi ma'rifatchilik davrida ilmiy qiziqishlarga sabab bo'ldi, hamda ko'plab ilmiy ishlarning tadqiqot obyektiga aylandi. Ushbu parchani muhim ma'lumot sifatida keltirib o'tish joiz deb hisobladik. „1762 tauchte diese Geistergestalt, die sich durch Klopfergeräusche bemerkbar machte, in London auf.“ Unga ko'ra ilk bor 1762- yil o'zini turli tavushlar orqali namoyon qiluvchi ruh va sharpalar obrazi Londonda paydo bo'ldi. Aniqroq aytilganda, real dunyoga xos bo'lmagan tasvir yoki obraz insonlar uchun g'ayritabiiylikni anglatadi. Bular asosan vampir, jodugar, shayton, sharpa kabi g'ayritabiiy mavjudot yoki obyekt

shaklida bo'lib, tabiat qonunlariga ko'ra, ular inson ruhiga egalik qilish istaklari sababli qo'rqinchli unsurlardir. "Makbet" asarida uchta jodugar aks ettirilsa, doktor Faust jin bilan hamda bilvosita Lyutsifer bilan muloqot qiladi. "Yo'qotilgan jannat" asarida barchasi g'ayritabiiy narsalar mujassamlashgan. (WordPress.com. Elements of the Gothic).

Animistik tasavvur ko'rinishlarini adabiyotga kiritish fusunkor dunyoga katta xavf soladi, chunki aql g'ayritabiiy kuchlar mavjudligini inkor etadi, bu esa qo'rquv hissini uyg'otish yoki yengish uchun vosita hisoblanmaydi. Adabiyotda g'ayritabiiy unsurlardan qo'rqishning aks ettirish tarixiy rivojlanishga murojat qilishni talab qiladi. Adabiyot nafaqat haqiqatni kuylaydi, balki uni uning mukammal shaklini ifodalashga harakat qiladi. (Richard W., 1996, 25). Inson tabiatiga xos tez-tez sodir bo'luvchi qo'rqinchli hodisa bu - tushdir. Tushlar odamda ekstaz, quvonch va dahshat kabi kuchli his-tuyg'ularni keltirib chiqaradi. Ular chuqur his-tuyg'ularga yo'g'rilib, oldindan bashorat qilish hodisasi sifatida namoyon bo'ladi. Mualliflar o'z asarlarida tush elementi orqali hissiyotlarni dahshatli darajada tasvirlay oladilar. Tushlar kitobxonga qahramon ko'pincha anglashi qiyin bo'lgan narsalarni ochib beradi. Tush ko'rishning bashorat qilish bilan ham qadimiy aloqasi bor ma'lum, bunda kelajak tush holatida ko'rinadi.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, gotik roman unsurlari asarlarda qo'rquv motivini aks ettirishda muhim ahamiyatga ega. Harakat joyi, tabiat hodisalari, sirli va shubhali muhit gotika janrini bezatuvchi komponentlar hisoblanadi. Albatta obraz ham kitobxonda qo'rquv qo'zg'atuvchi motiv sifatida xizmat qiladi. Shu boisdan gayrioddiy mavjudodlar gotika adabiyotga kiritiladi. Gotika fantastikasining asosiy qahramonlariga zolimlar, yovuz odamlar, qaroqchilar, telbalar, quvg'inga uchragan insonlar, sehrgarlar, bo'rilar, yirtqich hayvonlar, jinlar, farishtalar, jonivorlar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Conrad, Horst: Die literarische Angst. Das Schreckliche in der Schauerromantik und Detektivgeschichte. Düsseldorf: Bertelsmann Universitätsverlag 1974. S.13
- 2.Felix Krämer (Hrsg.): Schwarze Romantik von Goya bis Max Ernst. Katalog zur Ausstellung im Städel Museum Frankfurt, 26. September 2012 bis 20. Januar 2013. Hatje Cantz Verlag s.18
- 3.Hauptmeier Helmut und J.Schmidt. Einführung in die empirische Literaturwissenschaft.Braunschweig.Vieweg. 1985. S-144
- 4.Heinz-Georg Held: Schnellkurs Romantik. Dortmund, Köln 2000, S. 116
- 5.Kevin Ryan, Van Helsing. Harper Collins Entertainment. – 2004. – 272 p.
- 6.McReynolds, Paul. Assimilation and Anxiety. New Concepts, Methods and Applications. Hillsdale. Erlbaum. 1976. P-36

7. Michael Bernsen. Angst und Schrecken in der Erzählliteratur des französischen und englischen 18. Jahrhunderts Wege moderner Selbstbewahrung im Auflösungsprozess theologisch-teleologischer Weltanschauung München. Fink 1996 S-103

8. Richard Wasson. The Politics of Dracula. ELT Press. 1966. P-25

9. Wolfgang Iser. Erlesener Angst. Schauerliteratur im 18. und 19. Jahrhundert. München. 1980. S.15

10. WordPress.com. Elements of the Gothic